



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	<b>O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	<b>ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	<b>QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	<b>SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	<b>SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	<b>TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	<b>MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	<b>XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	<b>ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	<b>XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	<b>IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)</b> <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	<b>ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b> <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	<b>ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ</b> <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	<b>TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	<b>RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI</b> <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	<b>НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА</b> <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	<b>THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY</b> <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI</b> <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i>	88
24	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	<b>IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b> <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	<b>GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI</b> <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI

Mirzasalimova Ozoda To'liqin qizi

International School of Finance Technology and Science instituti tadqiqotchisi, (Phd)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali O'zbekistonda Islomiy banklar investitsiya faoliyatini rivojlantirish muommolari tahlil qilingan. Tadqiqotning muhimligi va bugungi kundagi ahamiyati Islomiy banklar faoliyati uchun qabul qilingan qonun hamda investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini yaratishda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifasi O'zbekistonda Islomiy banklar investitsiya faoliyatini rivojlantirish muommolariga xalqaro tajribalar natijalaridan kelib chiqib, bugungi kun va kelajakdagi istiqbollarni ko'zlagan holda muqobil va samarali yechim va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Islomiy banklar, investitsiya faoliyati, banklar, banklarni soliqqa tortish, davlat roli, xalqaro natijalar.

**Abstract:** This article analyses the challenges associated with developing the investment activities of Islamic banks in Uzbekistan and proposes research-based solutions. The significance and contemporary relevance of the study are defined by the law adopted for the operation of Islamic banks and by its focus on creating opportunities for attracting investment to enhance our country's competitiveness in the international financial market. The main objective of the study is to progress alternative and effective solutions and recommendations for the development of investment activities of Islamic banks in Uzbekistan, based on the results of international experience and taking into account current and future prospects of the country.

**Keywords:** Islamic banks, investment activities, banks, taxation for banks, government role, international results.

**Абстрактный:** В данной статье анализируются проблемы развития инвестиционной деятельности исламских банков в Узбекистане и предлагаются научно обоснованные решения. Значимость и актуальность исследования определяются принятым законодательством, регулирующим деятельность исламских банков, а также его направленностью на создание возможностей для привлечения инвестиций с целью повышения конкурентоспособности нашей страны на международном финансовом рынке. Основная цель и задача исследования заключаются в разработке альтернативных и эффективных решений и рекомендаций по проблемам развития инвестиционной деятельности исламских банков в Узбекистане на основе результатов международного опыта, разработать альтернативные и эффективные решения и рекомендации на основе результатов международного опыта с учетом современных реалий и перспектив на будущее.

**Ключевые слова:** Исламские банки, инвестиционная деятельность, банки, налогообложение банков, роль государства, международные результаты.

### Kirish (Introduction/Введение).

Xalqaro va ananaviy banklarning bugungi kunda duch kelayotgan moliyaviy inqirozlardagi xavflarini kamaytirishga qaratilgan yangi moliyaviy instrumentlarga bo'lgan talablar dunyoda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muhim ehtiyojiga aylanib kelgan va kelmoqda. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi moliya tizimiga Islom Shariati qoidalarida faoliyat yurituvchi yangi Islomiy banklarning kirib kelishi ushbu davlatlarning ko'p yillik xalqaro moliya bozorida aynan Islom moliya va bank tizimi orqali ko'plab loyihalarni moliyalashtirib, ushbu davlatlarning iqtisodiyotida aynan moliyaviy pufaklarsiz real iqtisodiy daromadlari o'sayotganini guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Bugun O'zbekistonda ham xalqaro moliya bozorida o'z o'rniga ega bo'lish uchun nafaqat xalqaro moliya tizimini balki aynan Islom moliyasi bilan birgalikda uyg'unlashtirib rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro moliya bozorida ham Islom moliya ulushining o'sib kelayotgan bir paytda rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar ham bunga katta qiziqish bildirib kelayotgani Islomiy banklarning investitsiya faoliyatida muommolarni tahlillar orqali bartaraf etish kerakligiga asos bo'ladi.

Maqolada rivojlangan davlatlarning amaliyotidagi ijobiy natijalari o'rganilib, Islomiy banklarning ishlash tizimiga qanday yondashuv va chora tadbirlar uni O'zbekistonda rivojlanishiga olib borishi tahlillar orqali ko'rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Islomiy banklar investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi muommolari boshqa davlatlar uchun turli davrlarda ko'plab usullar yordamida tahlil qilingan.

Asosiy usullardan biri esa tizimli adabiyot sharhi (SLR) hisoblanib, eng rivojlanish bosqichlari 1979 -2025 davrlar orasida bo'lgan. Avvalgi ishonchli adabiyotlar olimlarning tahlillari va maqolalari orqali trendlar, muommolar va bo'shliqlar aniqlangan. [3]

Bibliometrik tahlil (Ilmiy tahlil) VOSviewer yordamida ilmiy adabiyotlar tuzilmasini vizualizatsiya qilish va o'rganishning zamonaviy usulidir. Dastur foydalanuvchilarga tarmoq ma'lumotlariga asoslangan xaritalar yaratish imkonini beradi, murakkab bibliografik munosabatlarni aniq klasterlarga aylantiradi.

Empirik (ekonometrik) metodi fakt va statistik ma'lumotlarga tayangan tahlil yo'nalishi bo'lib bir qancha usullar orqali tadqiqot qilinadi. Regressiya tahlili (OLS, panela ma'lumotlari), GMM (Umumiy momentlar usuli), Vaqt qatorlari tahlili kabi tadqiqotlar orqali bugungacha Islomiy bank investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'siri o'rganilib kelinmoqda. [5]

Comparative Analysis (taqqoslash metodi) ushbu metoddan ilmiy ishlarda Islomiy banklar va an'anaviy bank tizimini yaqqol farqlarini o'rganib tahlil qilishda foydalanib kelinadi. Bugungi kunda ham eng ko'p va samarali tahlillar Turkiya, Malaysiya va Buyuk Britaniya davlatlari tajribalaridan olinadi. [2]

Qualitative / Legal Analysis (sifat/huquqiy tahlili) barcha yondashuv chuqur anglash uchun bajariladigan bosqichlardan iborat bo'lib, Islom moliyasi tizimida ham nega qanday kabi savollarga amaliy tajribalardan va savol javoblari orqali o'rganiladigan metod bo'lib, shariat qoidalariga rioya qilish va huquqiy tartiblarni moslashtirish uchun qo'llaniladi. Islom moliyasini o'rganish va tadqiqot ishlari fanlararo yondashuvni keltirib chiqaradi va aynan huquq hamda iqtisod birgalikda samarali natija beradi. [1]

Case study (tajriba tahlili) O'zbekistonda Islom moliyasining faoliyati muvaffaqiyatga erishishi uchun bu muhim metodlardan biri va ayniqsa davrlardan BAA, Malayziya va Buyuk Britaniya tajribalari orqali qanday muommolar oldinda yuzaga kelishi kutiladi va qanday choralar tajribada ko'rilgan va ularning natijalarini bilish bu har bir davlat uchun muhim tahliliy jarayon hisoblanadi. [7]

Mixed methods (metodlar aralashuvi) bir qanda tahliliy metodlar jamlansa albatta kuchliy ilmiy tahlillar yuzaga keladi ushbu metod ham aynan Islom moliyasining rivojlanish bosqichlarida ko'p qo'llanilgan. [9]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili O'zbekistonda Islomiy banklarning investitsiya faoliyati uchun dolzarb bo'lgan asosiy bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni ko'rsatishga imkon yaratadi:

-Texnik va institutsional tayyorgarlik. Tizimli adabiyotlar sharhi SLR. Bibliometrik tahlil (Ilmiy tahlil) VOSviewer, Empirik (ekonometrik) metodlari ko'rsatayotgan tahlillarni joriy etishda Islom shariat qoidalari va huquqiy masalalarning mohiyati davrlar orasida qanday joriy etilish bosqichlari, iqtisodiyot va soliq tizimi uchun muhim bo'lgan amaliy tahlillarga mos yangi tizimlar qo'llanmalari, kadrlar masalasi, hamda davlat va tashkilot o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy qo'llab quvvatlash kelishuvlarini talab qiladi- bu barcha adabiyotlarda takroriy xulosa sifatida qayd etilgan.

-Ma'lumotlar sifati va modellari. Islomiy bank investitsiya faoliyatini to'g'ri tashkil etish va rivojlantirish uchun tarixiy va qonun hamda soliq bo'lariga yo'naltirilgan ma'lumotlar talab etiladi.

- Islomiy bank investitsiya faoliyatini nazoratga olish bo'yicha vakolatli davlat organi roli va moslashuvchan soliq tizimi. Xalqaro moliya bozorida ham o'z uslubiga ega Islomiy banklar tizimidagi yuqori kengash va tashkilotlar jumlab bergan shariat qonunlari doirasida faoliyat yuritish muhim. Shu jumladan O'zbekistonda ham moslashish va davlatning iqtisodiy va siyosiy qo'llab quvvatlashi kabi bosqichma bosqich faoliyati boshlandi va hali davomiy zarur ishlar kutilmoqda.

-Investitsiya faoliyatidagi tahliliy va natijaviy boshqaruv. Investitsiya rivojlanishidagi muommolarni faqat avvalgi davrlardan olingan tahliliy va natijaviy amaliyotlardan samarali foydalanilsa muommolar bartaraf qilinishi mumkin bo'ladi. O'zbekiston uchun ustuvor vazifa – ijro organi va yuqori boshqaruv darajasida investitsiyaga yo'naltirilgan faoliyatni rivojlantirish.

- Soliq va iqtisodiy siyosat orqali qo'llab quvvatlash. O'zbekiston soliq tizimida va qonunchilikdagi ayrim o'rganishlarni Islomiy bank faoliyatiga moslashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib, xalqaro moliya standartlar bilan faoliyat yuritib kelgan davlatlar tajribalari misolidagi tahlillarni ham taqqoslashda mantiqiy yondashuv zarur.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).**

Bu maqola mavzusi yuzasidan tahlil ishi uchun taqqoslash, tajribalar tahlili, sifat-huquqiy tahlil, mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).**

O'zbekistonda hozirgi davr talabidan kelib chiqib Islomiy banklarga ham talab yuqorilab bormoqda, jaxon iqtisodiyotida moliya tizimiga qo'shgan hissiy yuqori baholanib dunyoda ko'plab davlatlar tomonidan tan olinmoqda va O'rta Osiyoda qo'shni davlatlarning ham iqtisodiyotiga

Islomiy bank kirib kelishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, Islomiy banklar va moliya faoliyati bir qancha yuqori tashkilotlar: IFSB (Islamic financial services board)- (Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi), AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) – (Islomiy moliyaviy institutlar uchun buxgalteriya va audit tashkiloti) tomonidan tizimli muhofaza va nazorat ostidagi esa uning yanada rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribalar tahlili asosan quyidagi natijalarni ko'rsatadi:

1 Malayziya bosqichma bosqich shariat qonuniga mos ravishda Islomiy bank va moliya tizimini tashkil etish. Avvaliga Islomiy bank o'sish ko'rsatkichlari past natijalar bilan boshlangan, biroq davlat islomiy bank faoliyatiga moslashtirilgan soliq tizimini yo'lga qo'yganidan so'ng ko'plab bank xizmatlari o'z mijozlariga takliflar va loyihalarni moliyalashtira olgan hamda yuqori o'sish ko'rsatkichlariga chiqqan.

2 Buyuk Britaniya bizga ma'lumki IFRS standartlarining kelib chiqqan nuqtasi bo'lib, dunyodagi moliyaviy inqirozlar va moliyaviy pufaklar ushbu yirik xalqaro moliya tizimiga ega davlatni ham katta muommolarga duch kelishini ko'rsatdi. Shu kabi vaziyatdan chiqish uchun aynan Islom moliya tizimidagi real iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan Islomiy moliya tizimi yangi bir yo'nalish sifatida qaralib bugunga qadar soliq va siyosiy jixatdan davlat tomonidan barcha kerakli yordamva moslashuv faoliyatini qo'llab quvvatlash amalga oshirilib kelmoqda va bugungi kunda 10dan ortiq islomiy bank va moliya tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqda.

3 Turkiya davlati azaldan o'zining ham sharqona ham yevropa darajasida hayot va iqtisod tarziga ega juda keng salohiyatli davlat sifatida tan olingan. Uning islom moliyasi uchun ham davlatning Islomiy iqtisod va moliya tizimini to'g'ridan to'g'ri qo'llab quvvatlashi sabab aholisi va turistlar hamda xalqaro investorlar uchun xaqiqiy xalqaro moliya bozori sifatida qaraladi.

Tahlillardan anglash mumkinki, bugungi kunda Islomiy banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish muommolarini hal qilish uchun: moslashtirilgan soliq tizimi, xalqaro iqtisodiyotdagi siyosiy va amaliy tajriba almashish, hamda shariat qoidalarning iqtisodiy va moliyaviy faoliyati uchun kadrlar o'qitish tizimli yo'lga tushirish kabi masalalarni tez va sifatli amalga oshirish lozim. Bu umumiy xulosalar hisoblanib, amaliyot jarayonida albatta har bir Islomiy bank investitsiya faoliyati uchun tahlil va o'rganishlarni alohida bo'limlar kesimida rivojlantirib borish muhim.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).**

Islomiy banklar va ularning investitsiya faoliyatini rivojlangan davlatlarda takomillashtirish bosqichlari bir qancha qadamdan boshlangan. Shariat asosida faoliyat yuritish bu Islom moliyasining eng asosiy vazifasidan biri bo'lib unda davlatlar o'zlarining bank tizimiga bo'lgan qarashlari hamda ichki qonunlar va soliq tizimlarida yangi va moslashtirilgan qonunlarni o'rnatish orqali Islomiy banklar va moliya tashkilotlari faoliyatida o'sishga zamin yaratata olishgan. Islomiy banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirishda eng asosiysi bu davlatning diniy bilimlariga o'rganishi emas, balki iqtisodiy va moliyaviy bilimlarni shariat qoidalari asosida amalga oshirishidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (References/Литературы):

1. Xudoynazarov, Faxritdin. (2023). ISLOM MOLIYASI – MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 1. 109-114. 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss8-pp109-114.
2. Tax incentives for Islamic finance transactions in Malaysia extended until 2020 <https://www.ohlaw.net/newsevents/tax-incentives-for-islamic-finance-transactions-in-malaysia-extended-until-2020/>
3. Harahap, B., Risfandy, T., & Futri, I. N. (2023). Islamic Law, Islamic Finance, and Sustainable Development Goals: A Systematic Literature Review. Sustainability, 15(8), 6626. <https://doi.org/10.3390/su15086626>
4. Tax neutrality for Islamic Financial transactions in Oman <https://www.ohlaw.net/newsevents/tax-neutrality-for-islamic-financial-transactions-in-oman/>
5. Iqbal, Javid & Sohail, Muhammad & Malik, Muhammad. (2023). Predicting the future financial performance of Islamic banks: a sentiment analysis approach. International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management. 16. 10.1108/IMEFM-07-2022-0267.
6. STABILITY REPORT 2014 ISLAMIC FINANCIAL SERVICES INDUSTRY Chart 1.3.1.10: Sovereign Sukuk Yields vs. [https://www.ifs.org/wp-content/uploads/2023/10/Islamic-Financial-Services-Industry-Stability-Report-2014\\_En-1.pdf](https://www.ifs.org/wp-content/uploads/2023/10/Islamic-Financial-Services-Industry-Stability-Report-2014_En-1.pdf)
7. Sharia Compliant Financial Services in the United Kingdom <https://www.islamicfinance.com/2014/12/islamic-finance-in-the-united-kingdom/>
8. Islamic Bank of Britain celebrates UK islamic finance Administrator <https://www.mortgagestrategy.co.uk/news/islamic-bank-of-britain-celebrates-uk-islamic-finance/>
9. Islamic Finance in the UK. [https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/503491/2015047\\_Is\\_Fin\\_A5\\_AW\\_ENG\\_WEB.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/503491/2015047_Is_Fin_A5_AW_ENG_WEB.pdf)
10. Future of Islamic Finance in Central Asia – IsDB Institute <https://isdbinstitute.org/product/future-of-islamic-finance-in-central-asia/>
11. Islamic Banks in Turkey <https://www.islamicfinance.com/islamic-banks-turkey/>
12. Can Islamic Finance Drive Banking Sector Development in Uzbekistan? <https://proreforms.uz/uz/publications/can-islamic-finance-drive-banking-sector-development-in-uzbekistan-53/>